



# ANALYSIS OF INTERNATIONAL SCIENCES

## International scientific journal

Volume: 2 Issue: 1



## BOSHLANG'INCH SINFLARDA SAHNALASHTIRISH FAOLIYATINING MAQSADI

**Tojikarimova Moxira Anvarjon qizi**

*Qo'qon universiteti Boshlang'ich ta'limgan yo'nalish talabasi  
[moxiratojikarimova660@gmail.com](mailto:moxiratojikarimova660@gmail.com)*

**Ravshanbekova Dilraboxon Elbekjon qizi**

*Qo'qon universiteti Boshlang'ich ta'limgan yo'nalish talabasi  
[Ravshanbekovadilrabo799@gmail.com](mailto:Ravshanbekovadilrabo799@gmail.com)*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada Boshlang'ich sinflarda sahnalashtirish faoliyatini yuritish. Sahnalashtirish faoliyati orqali bolalarda nutq ifodaligini shakllantirish intellektual va badiiy estetik tarbiya bilan bog'liq ko'plab pedagogik vazifalarni hal etish. Sahnalashtirish faoliyati bolalarda voqeja va ertak qahramonlarining ichki hayotiga bevosita aloqador bo'lgan qahramonlik, jasurlik, mehribonlik, jonbozlik, jonkuyarlik kabi ijodiy fazilatlarni o'zlarida yaqqol namoyon qiladilar.

**Kalit so'zlar:** O'yin faoliyati shakllari, sahnalashtirish faoliyati, ijrochilik, ijodiy faoliyati, faollashuv, tashabbuskorlik, emotional rivojlanish.

**Abstract:** In this article conducting staging activities in primary grades. Formation of speech expression in children through staging activities solves many pedagogical tasks related to intellectual and artistic aesthetic education. Staging activities are heroism in children that is directly related to the inner life of the heroes of events and fairy tales clearly manifests positive qualities such as courage kindness enthusiasm.

**Key words:** Forms of game activity staging activity performance creative activity activation initiative emotional development.

**Аннотация:** В данной статье проведение постановочной деятельности в начальных классах. Формирование речевой выразительности у детей посредством постановочной деятельности решает многие педагогический задачи связанные с интеллектуальным и художественно эстетическим воспитанием. Постановочная деятельности это героизм у детей который непосредственно связан с внутренней жизнью ярко проявляет такие положительные качества как смелость доброта энтузиазм.

**Ключевые слова:** Формы игровой деятельности постановочная деятельность перформанс творческая деятельность активизация инициатива эмоциональное развитие.

### KIRISH:

Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatishning asosiy maqsadi bolalarda sahnalashtirish ishlarni olib borish, bolalar ijodiga rahbarlik qilish uchun amaliy bilim va ko'nikmalar berish. Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga



# ANALYSIS OF INTERNATIONAL SCIENCES

## International scientific journal

Volume: 2 Issue: 1



o'rgatishning vazifasi bolalarni sahnalaشتirish aktyorlikka tayyorlash ijodiy faolyatini tashkil etishga, qo'l mehnatiga, badiiy mehnatga qiziqishlarini uyg'otish mehnat orqali hosil bo'lgan ko'nikma va malakalarini shakllantirish bolalarda ijodiy ko'rgazmalar qog'oz, karton kabi materiallar xususiyatlari bilan tanishtirish buyumlarni tayyorlash jarayonini rejalashtirish tayyorlash texnalogiyasini o'rgatish mahsulotni tejash buymalar qoralamasining eskizini va suratini chizishga ish joylarini tartibli saqlashga o'rgatish bolalarni buyumlar yasash jarayonida oddity asboblardan foydalanishga o'rgatish hamdar badiiy didlarni shakllantirishga vaqt ni tejay olishga maqsadga muofiq ishslashga odatlantirishdir.

### ASOSIY QISM:

Ijodiy qobilyat insonni hayvondan farqlab turadigan bir xususiyatdir. Bu qobilyat insonga nafaqat hayot davomida qo'l kelishi va undan foydalanish mumkin balki uning ko'rinishini o'zgartirishi ham mumkin. Bolalar ijodiyati va uning o'ziga xos tomonlarini tushunish pedagoglardan ko'pgina bilimlarga ega bo'llishini talab etadi. Bolalar atrof-olam bilan tanisha borish jarayonida ularni o'z faoliyatlarida ya'ni o'yinlarida chizgan rasmlaridan loy ishlarida hikoyalarda va hokazolarda aks ettiradilar. Bolalar tasviriy faoliyatda atrof-olamda olgan taassurotlarida tasavvurlaridagi timsollarni turli-tuman materiallardan va aniq shakllari yordamida tasvirlashga harakat qiladilar. Bolalar ijodiyatida ijodiy faoliyatining boshlang'ich bosqichida o'ziga xos harakter xususiyatlari mavjud. Bularga avval o'zlashtirilgan ish usullarini yangicha mazmunda qo'llashda, oldinda turgan vazifalarni yangi usullar orqali yechishni, o'z his-tuyg'ularini turli vositalar yordamida ifoda etishlarida faol va mustaqil ishtirok etishlari kiradi. Atrof-olamni bolalar tasviriy faoliyatda tushunish ijodiy ko'rinishlar bilan bog'liq emas, balki bola ishlayotgan ko'rsatayotgan materialning tarkibini aniqlash orqali namoyon bo'ladi. Masalan: qalam va bo'yoqlar qog'ozda iz qoldiradilar, loy yumshoq undan narsalar yasash mumkun. Keyinchalik tasviri faoliyat va izlanishlarning rivojlantirish uchun bu bosqich kichik ahamiyat kasb etadi, chuki bola bunda tasavvurlaridagi timsollarni yaratish uchun yordam beradigan material bilan tanishadi. Qalamdan qoladigan iz nimanidir ifodalashini tushunadigan bola o'z xohishi va kattalarning taklifiga ko'ra qandaydir predmetni tasvirlashga harakat qilsa, unda bolaning tasviriy harakter tusini olgan bo'ladi. Bolalarning tasviriy ijodiyotining o'ziga xos tomonlarini o'rganish uchun pedagogika tarixida bir qator pedagogik va psixologik tadqiqot ishlari olib borilgan. Bolalarda



# ANALYSIS OF INTERNATIONAL SCIENCES

## International scientific journal

Volume: 2 Issue: 1



ijodiy qobilyatlarning rivojlanishida tasviriy faoliyat turkumiga kiruvchi mashg‘ulotlarning o‘rni beqiyos ekanligini e’tirof etgan holda bunday mashg‘ulotlar ularda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirishga ham tamal toshini qo‘yishi shubhasizdir.

Bolalar rasm, appalikatsiya, loy ishi,qirqib yelimlash mashg‘ulotlari davomida nafaqat biror ish bilan ma’lum muddat band bo‘ladilar, balki yuqorida aytib o‘tganlarimizga qo‘shimcha ravishda ularda quydagilar rivojlanadi va shakillanadi:

1. Tasviriy san’at sohasiga doir qobilyatlari aniqlanadi va shakllantiriladi.
2. Qalam, mo‘qalamni ushslash, loy, plastlin bilan ishslash, qaychida ayrim narsalarini qirqib yelimlash orqali mayda qo‘l mushaklari rivojlanadi;
3. Bola yozuv texnikasini egallashga tayyorlanadi.
4. Bola tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari orqali diqqatini bir joyga taqsimlay olishni va ishini oxiriga qadar bajarishni, o‘tira olishni o‘rganadi.
5. Tabiatni, atrof-olamni kuzatishni, uni asrab-avaylashni, ardoqlashni, unga nisbatan to‘g‘ri munosabatda bo‘lishini o‘rganadi.
6. Jamoa bo‘lib mehnat qilish, ishini rejalashtira olish, o‘rtoqlarini eshita olish va o‘zaro fikr-mulohazalarni inobatga olgan holda ishslash malakalari shakillanadi.
7. Xalqimizning boy ma’daniy-ma’naviy merosi haqida tushuncha va taassavurga ega bo‘ladi va ularni o‘z ishlarida ifdalashga o‘rganadi.

### XULOSA:

Xulasa qilib aytganda, sahnalashtirish, bolalarni qo‘l mehnatiga badiiy mehnatga o‘rgatish katta masuliyat talab qiladi. Bolalarni qiziqishlarini inobatga olish ularga qulay sharoit yaratish ham asosiy maqsadi hissoblanadi.Ish joyini saramjon-sarishta, ozoda saqlash narsalardan oqilona va tejab o‘rgatish kabi muhim jihatlar pedagogik mahoratga bog‘liqdir. Pedagoglardan bolalarni qiziqishlariga katta e’tiborberishlari, ularni qadrlashlari, shiringina kichkintoy bolajonlarni vaqtlarini unumli foydalanishga o‘rgatish ham katta tajriba talab qiladi. Bu kabi ko‘nikma, malakaga ega pedagoglar bolalarni ko‘nglidan joy olishadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D. Q. Asqarova “Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish” (Metodik qo‘llanma) Namangan 2018 yil
2. Tojikarimova Moxira Anvarjon qizi, & Abdullajonov Davronjon Shokirjon o‘g‘li. (2023). BOSHLANG’ICH TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA



# ANALYSIS OF INTERNATIONAL SCIENCES

## International scientific journal

Volume: 2 Issue: 1



QARATILGAN ZAMONAVIY YONDASHUVLARNING MAQSAD VA VAZIFASI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 658–660. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.671>

3. Tojikarimova Moxira Anvarjon qizi, & Valiyeva Nargiza. (2023). TARBIYA JARAYONIDA OILA MAHALLA HAMDA TA'LIM MUASSASALARINING O'ZARO HAMKORLIGI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 637–639. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.665>
4. Tojikarimova Moxira. (2023). BOLALARNING PSIXOLOGIK RIVOJLANISHIDA ELEKTRON RESURSLARDAN FOYDALANISH. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 1(1), 20–25. Retrieved from <http://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/5>
5. Tojikarimova, M. A. qizi. (2023). BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHIDA INNOVATSION TA'LIM TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. Educational Research in Universal Sciences, 2(16), 824–828. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5106>
6. Badiy o'qishning maqsad va vazifalari. (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(1), 54-59. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/60>
7. BADIY O'QISH VA DRAMA FANI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR. (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(1), 49-53. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/59>
8. Ikromjonovna, J. S. (2023). Umumiyo'rtta ta'limga muktablarida joriy etilgan yangi darsliklarning afzallik jihatlari. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 661-663.
9. Maxliyoxon, O., & Xonzodabegim, I. (2024). BOSHLANG 'ICH TA 'LIMDA SAHNALASHTIRISH FAOLIYATINING O'RNI. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 3(1), 64-68.
10. Akhrorjon, A., & Maxliyoxon, O. (2024). IMPACT, RESULTS AND CONSEQUENCES OF WTO ACCESSION ON THE EDUCATION SYSTEM. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(1), 6-15.
11. Axrorjon, A., & Maxliyoxon, O. (2024). TA'LIM SIFATI OSHISHIDA JSTNING O'RNI. *YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR*, 2(1), 113-118.
12. Abdullaev, A., & Odilova, M. (2024). THE ROLE OF WTO IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 3(1), 140-148.



**ANALYSIS OF INTERNATIONAL SCIENCES**  
**International scientific journal**

**Volume: 2 Issue: 1**



13. Axadjon o‘g‘li, A. A. (2024). JSTGA A’ZOLIKNING RAQAMLI IQTISODIYOTGA VA TA’LIMGA IJOBIY TA’SIRI. *Analysis of International Sciences*, 2(1), 95-102.

